

STUDYING THE EXPERIENCE OF FOREIGN ARMIES IN TANK CREW TRAINING

Bexzod Xalikovich Davletov

PhD, Associate Professor, Armed Forces Employee, Associate Professor of the Department of Armament and Marksmanship at the Institute of Ground Forces, Military Security and Defense University of the Republic of Uzbekistan.

**TANKCHILARNI O'QITISH BO'YICHA XORIJIY ARMIYALAR
TAJRIBASINI O'RGANISH**

Davletov Bexzod Xalikovich,

h.f.f.d. (Phd) dotsent, QK xizmatchisi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar instituti qurollanish va otish kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tank ishlab chiqarish sohasida ilg'or xorijiy davlatlar mutaxassislarining tankchilarni otish tayyorgarligidan o'qitish bo'yicha, shuningdek, tank qurol-aslahalarini jangovar qo'llashga tayyorlashda foydalanib kelinayotgan moslamalarning turlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Tankchi, tank ekipaji, o'qitish bosqichi, zirhli tank maktabi, ekspluatatsiya, virtual trenajyor, poligon, direktisa, texnik xizmat ko'rsatish, o'quv markazi.

Аннотация. В данной статье представлена информация об обучении танковых экипажей к стрельбе специалистами передовых зарубежных стран в области танкостроения, а также о видах приспособлений используемой при подготовке танкового вооружения к боевому применению.

Ключевые слова: Танкист, танковый экипаж, этап обучения, танковая школа, эксплуатация, виртуальный тренажер, полигон, директриса, техническое обслуживание, учебный центр.

Abstract. This article provides information on the training of tank crews in firing readiness by experts from advanced foreign countries in the field of tank production, as well as on the types of equipment used in preparing tank weapons for combat use.

Keywords: Tanker, tank crew, training stage, armored tank school, operation, virtual simulator, training ground, directorate, technical maintenance, training center.

Dunyoda zamonaviy urush strategiyasi va taktikasining tamoyillariga mos ravishda otish tayyorgarligi tizimini takomilashtirish bo'yicha maqsadli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunda, tank bo'linmalari ekipajlarining otish usullarini takomillashtirish, turli istehkomlardan yaqin va uzoq masofalardagi nishonlarga aniq otish, to'satdan va o'zgaruvchan vaziyatlarda tezkor, to'g'ri qaror qabul qilish qobilyatlarini shakllantirish, ekipajlarga otish tayyorgarligi jarayonida jismoniy yuklama berish hamda ruhiy ta'sir ko'rsatishning yangi usullarini yaratish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanmoqda.

Tankchi mutaxassislarni o'qitishni rivojlangan davlatlar misolida ko'ramiz.

Amerika Qo'shma Shtatlari armiyasining dala nizomiga asosan tankchilarning jangovar tayyorgarligi uch bosqichdan iborat.



Birinchi bosqichda asosiy e'tibor, tankchilarning individual tayyorgarligiga va ularning mutaxassiligi bo'yicha boshlang'ich ko'nikmalarni egallashlariga qaratiladi. Ikkinchi bosqichda asosiy e'tibor, ekipajning qurol-aslahalar bilan ishlashdagi va ularni qo'llashdagi ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratiladi. Uchinchi, yakunlovchi bosqichda asosiy e'tibor, ekipajning taktik vazifalarni yechish uslubiyoti bo'yicha ko'nikmalarini takomillashtirish, asosan ekipajning guruh tarkibidagi harakatlarga qaratiladi. Bu bosqichda ekipaj jangda nishonlarni taqsimlash va otishni madad kuchlari bilan hamkorlikda olib borish tajribalariga ega bo'ladi. Har bir bosqichning mohiyatini ekipajning otish tayyorgarligi misolida ko'rish mumkin.

Ekipaj a'zolari 1-bosqichda qurol-yarog'ning umumiy tuzulishi, qurol-aslahalarni otishga tayyorlash va otishdan keyin texnik xizmat ko'rsatish ko'nikmalariga, shuningdek tank qurol-aslahalaridan otish vazifalarini yechishni qo'llashni o'rganishadi. Ikkinchi bosqichda asosiy e'tibor ekipajlarning jipsligini oshirishga qaratiladi.

O'quv mavsumi davomida sakkizta otish jadvalida ko'rsatilgan o'quv va sinov mashqlari bajariladi. Boshlang'ich otish jadvalarida tank komandiri va mo'ljalga oluvchi nishonlarni topish, nishon ko'rsatish va yakson etishda otish qoidalarini to'g'ri qo'llash ko'nikma va malakalarini oshirish bo'yicha otish mashqlari keltirilgan [1].

Keyingi otish jadvallaridagi otish mashqlari esa ekipajning to'la tarkibida otish vazifalarini yechishga qaratilgan. Har bir bosqichga faqat murakkablashib borgan otish mashqlarini bajargandan keyin o'tiladi. Masalan, ekipaj tarkibida otishni o'rganishni davom ettirish uchun, har bir ekipaj a'zosi tank ekipajlarini tayyorlash yo'riqnomasida ko'rsatilgan bir nechta individual mashqlarni bajarishadi. Ushbu bosqichda har bir ekipaj a'zosi otish mashqlarini bajarish bo'yicha belgilangan otish tayyorgarligi darajasini ko'rsatishi kerak. Uchinchi yakunlovchi bosqichda tank ekipajlari otish jadvali bo'yicha guruh tarkibida sinov mashqlarini bajarishadi. Bu bosqichda ekipaj jangda nishonlarni taqsimlash va otishni madad kuchlari bilan hamkorlikda olib borish tajribalariga ega bo'ladi. Sinov mashqlarida kunduzi va tunda otish uchun 11 dona nishon mavjud. 22 ta nishondan 12 tasi pushkadan yakson etilishi kerak va har bir yakson etilgan nishon uchun 100 ball hisoblanadi. Qolgan 10 ta nishonni pulemyotdan yakson etish kerak va har bir yakson etilgan nishon maksimal 50 ball bilan baholanadi. Qo'shimcha ball bilan hududdan oqilona foydalanganligi va o'q-dorilar sarfining tejamkorligi bilan baholanadi va olgan ballarning yig'indisini 2000 ballgacha ko'paytirish mumkin. Agarda ekipaj 1400 ball yig'sa, kvalifikatsiya darajasi yetarli deb hisoblanadi. Sinov mashqi tanklarning texnik tavsiflari va ularni qo'llash tajribasi o'zgarishiga qarab har doim takomillashtirilib turiladi.

Xulosa qilib aytganda, AQSH tank ekipajlarini yakuniy baholash ballar hisobida 0 dan 2000 ballgacha belgilangan [2].



1-rasm. M1A1 "Abrams" tanki



Xitoy xalq ozodlik armiyasining Benbu tankchilar bilim yurtida zirhli tank qo‘shinlari uchun ofitserlar tayyorlanadi.

Ushbu bilim yurtiga tinglovchilar harbiy xizmatchilar va fuqaro yoshlar qabul qilinadi. O‘qitish 3 darajali tayyorgarlikda olib boriladi: 4 yillik o‘qish muddatli baza kursi; 3 yillik o‘qish muddatli, bunda oliy maxsus ma’lumot beriladi; 2 yillik o‘qish muddatli, bunda o‘rta-maxsus ma’lumot beriladi. Bundan tashqari bilim yurti bazasida Xitoy xalq ozodlik armiyasi tankchi bo‘linmalari ofitser va serjantlarining malaka oshirish kurslari mavjud.

O‘qitish mobaynida Tip-96, Tip-99 (2-rasm) asosiy tanklari va ularning modifikatsiyalaridan foydalaniladi. O‘rganishda maxsus taktik tayyorgarlik, otish tayyorgarligi, zirhli texnika ekspluatatsiyasi, ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish kabi o‘quv fanlari o‘qitiladi. O‘qitish davomida yoqilg‘i va o‘q-dori sarfini tejash maqsadida tanklardan amaliy otish va haydash mashqlari dastlab o‘quv-dinamik trenajyorlarida va virtual trenajyorlarida olib boriladi.



2-rasm. Tip-99 tanki

Tank ekipajlari otish tayyorgarligidan – qurol-yarog‘larning umumiy tuzilishi, otish asoslari va qoidalri, har xil sharoitlarda nishonlarni zudlik bilan topa olishi ulargacha bo‘lgan masofani aniqlash, otish uchun dastlabki ma’lumotlarni tayyorlash va barcha turdagi nishonlarni joyidan, harakatda va qisqa to‘xtash bilan yakson etishni, nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini, shuningdek qurollarga texnik xizmat ko‘rsatish, otishni boshqarish bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishadi. Tank ekipajlarida zarur ko‘nikma hosil qilingandan keyin jangovar texnikalarga ruxsat beriladi. Bilim yurtida qo‘mondonlik-o‘quv markazi, o‘quv-laboratoriya korpusi, elektron biblioteka korpusi, trenajyor kompleksi, kutubxona, o‘quv auditoriya va laboratoriyalari mavjud. Xitoy xalq ozodlik armiyasi tankchilarini tayyorlashning o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

Tip-96 (Tip-99) tankining pushka stvol kanali o‘qini pritselning nol mo‘ljallash chizig‘i bilan rostdashda maxsus poddon (stvol kanali o‘qini davom ettirish uchun moslama) stvol uch qismidan o‘rnatiladi;



a)



b)



c)



3-rasm. Pritsel nol mo'ljallash chizig'ini stvol kanal o'qi bilan rostlash:

- a)-pushka stvol kanali o'qini pritselning nol mo'ljallash chizig'i bilan rostlash uchun mo'ljallangan maxsus poddon; b) – maxsus poddonning stvol kanaliga o'rnatilgan holati; c) - maxsus poddon okulyaridan kuzatish holati.

tank qurollaridan otish mashqlarini bajarishda meteorologik sharoitni aniqlash uchun mo'ljallangan mobilmeteopost moslamasidan foydalaniladi;

Tip-96, Tip-99 tankining qurollarini jangovar qo'llashga tayyorlashda pushkaning jangini tekshirish va meyor darajasiga keltirish 600, 900, 1200, 1600 m masofalardagi nishonlarga otib tekshirish bilan amalga oshiriladi. Tank ekipajlarida zarur ko'nikma xosil qilingandan keyin jangovar texnikalarga ruxsat beriladi. Bilim yurtida qo'mondonlik-o'quv markazi, o'quv-laboratoriya korpusi, elektron biblioteka korpusi, trenajyor kompleksi, kutubxona, o'quv auditoriya va laboratoriyalari mavjud. Hududdan tashqarida poligon, direktrisa va tankodrom joylashgan [3].

Bundesver zirhli tank qo'shinlari mutaxassislarining professional tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratadi. Germaniya qurolli kuchlari qurolli mojarolar, o'quvlar va o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida o'qitish tizimini isloh qilib kelmoqda.

Germaniyada jangovar tayyorgarlik dasturiga asosan harbiy xizmatga yangi kelganlar professional tayyorgarligi ikkita bosqichda, umumiy sakkiz hafta mobaynida olib boriladi.

Birinchi bosqichda o'quv bo'linma tarkibida boshlang'ich harbiy tayyorgarlik dasturi bo'yicha o'qitiladi.

Ikkinchi bosqichda asosiy e'tibor, otish tayyorgarligiga qaratiladi. Harbiy xizmatchilar qurol bilan ishlash qoidalarini, texnika va qurollarning moddiy qismlarini va otish nazariyasini o'rganishadi. Bosqich yakunida poligonda sinov qabul qilinadi. Sinovlarni muvaffaqiyatli topshirgan va o'zini ijobiy tomondan ko'rsatgan ekipaj shaxsiy tarkibini bilim yurtlari o'quv markazlariga malakasini oshirish kurslariga yuboriladi.

Quruqlikdagi qo'shinlarning o'quv kursi yetti haftadan iborat. Bu vaqt davomida tank ekipajlari otish tayyorgarligi, taktik tayyorgarlik, haydash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini takomillashtiradilar. Mo'ljalga oluvchilarning tayyorgarligi Leopard Gunnery Skills Trainer trenajyorlarda olib boriladi (4-rasm).



4-rasm. LEOPARD LGST trenajyorining umumiy ko'rinishi

Bundesver tank ekipajlarini tayyorlash tizimining o'ziga xos jihatlaridan biri kompyuter-poligon harbiy o'yinlaridir. Kompyuter-poligon harbiy o'yinlarni o'tkazishda bo'linmalarni tayyorlash va ularning tayyorgarlik darajasini tekshirish uchun mo'ljallangan maxsus taktik



poligonlaridan foydalaniladi. Bu kompyuter poligonlari aholi yashash punktlarining maketlari, suv va boshqa to'siqlar bilan jihozlangan, shuningdek, tungi sharoitda mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyati ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, Bundesver tank ekipajlarini tayyorlash tizimi yetarli darajada ijobiy tajribalarga ega. Tank ekipajlarini tayyorlash dasturi bo'yicha boshlang'ich tayyorgarlik 1 oygacha, mutaxassislarni tayyorlash 3 oygacha. Qisqa muddat ichida harbiy xizmatchilarni tank mutaxassislari qilib tayyorlash uchun albatta kompyuterlashtirilgan tank trenajyorlaridan faol foydalanishadi. Kursantlarni tayyorlash ikkita bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – kursantlarning umumqo'shin tayyorgarligi davomiyligi bir oy. Bosqich oxirida uch kunlik dala chiqishi va nazorat mashqlari o'tkaziladi.

Ikkinchi bosqich – mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik davomiyligi to'rt oy. Umumqo'shin tayyorgarligining asosiy vazifasi-kursantga askar-o'qchi sifatida jangning asosiy turlarida harakat qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni berish, o'ziga va quroliga bo'lgan ishonch hissini tarbiyalash va jismonan chiniqtirishdan iborat.



Sinovlarni muvofaqiyatli topshirgan va o'zini ijobiy tomondan ko'rsatgan harbiy xizmatchilarni bilim yurtlari o'quv markazlariga yakka tayyorgarlik malakasini oshirish kurslariga, doimiy armiya harbiy qismlaridagi o'quv kurslariga yo'naltiriladi.

Quruqlikdagi qo'shinlardagi o'quv kursi yetti haftadan iborat.

Tank ekipaji tarkibida xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilar otish tayyorgarligi, taktik tayyorgarlik va haydash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini takomillashtiradilar. Oxirgi haftasida harbiy xizmatchilar bilan tank ekipaji tarkibida jangovar vaziyatga yaqinlashtirilgan sharoitda dala mashg'ulotlarini o'tkazishadi. Yakunida harbiy xizmatchilar sinov topshiradi va sutkalik taktik o'quvida ishtirok etishadi. Bundan keyin harbiy xizmatchilar qo'shinlarga yuboriladi. Bundesver tankchilarini amaliy mashq va mashg'ulotlari Bundesverning Munster shahridagi o'quv markazida olib boriladi. Bundesver tank ekipajlarining tayyorgarligini dastlab o'quv mashq vositalarida olib borishga asosiy urg'u beradi. Mo'ljalga oluvchilarning tayyorgarligi elektron trenajyorlarda olib boriladi, bu esa o'quv markazida amaliy otishga ajratilgan vaqtni qisqartirishga imkon beradi [4].

Rossiya Federatsiyasi o'quv tank bo'linmalarida kursantlarni otish tayyorgarligidan o'qitishning umumqo'shin tayyorgarligi doimo jismoniy va axloqiy-ruhiy yuklamalarni ko'paytirish tamoyiliga asoslangan, oddiy va yengildan, murakkab va qiyiniga ketma-ketligida o'tkaziladi [5].

Mutaxassislarni o'qitish muddati 6 oyni tashkil etadi. Kursantlarni o'qitishning asosiy usuli mashq qilish, tushuntirish va ko'rsatish sanaladi. Otish tayyorgarligidan kursantlar



bilan avvalo o'q-otar keyinchalik tank quollarining mo'ljallanishi, tavsifi va umumiy tuzilishi ularga texnik xizmat ko'rsatish va saqlash, otish asoslari va qoidalari o'rganiladi.

Asosiy e'tibor tank quollarini otishga tayyorlash, qurol-aslahalardagi harakatlari, otish vaqtida uchragan nosozliklar va ularni mohirona bartaraf etishga qaratiladi [6].

Olingan bilim va malakalar keyinchalik otish mashqlarini bajarishda takomillashtiriladi. Tank ekipajlari o'quv bo'linmalarida o'qishni tugatganidan so'ng keyingi xizmatlarini davom ettirish uchun qo'shinlarga yuboriladi.

Rossiya Federatsiyasi tankchilarini tayyorlashning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

tank ekipajlari o'quv dala maydonlariga chiqmasdan tank qurol-aslahalari bilan ishlashdagi boshlang'ich ko'nikma va malakalarini takomillashtirish maqsadida o'quv sinflari va tankdan otish shaharchalaridagi o'quv stendlaridan faol foydalanishadi;

tank qurol-aslahalaridan bajariladigan otish mashqlarini bajarishga kirishishdan oldin zamonaviy trenajyorlarda (tank komandiri, mo'ljalga oluvchi va mexanik-haydovchilarga mo'ljallangan) mashq qiladi;

tank ekipajlarining harbiy okruglardagi o'quv markazlarida tizimli ravshda qurollanish tarkibiga kiritilgan yangi rusumdagi tanklar bo'yicha malakalarining o'z vaqtida amalga oshirish yo'lga qo'yilgan [7].

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, xorijiy davlatlar va O'R MV tank ekipajlarini tayyorlash tizimini o'rganish tahlillari shuni ko'rsatadiki, tankchilarni tayyorlash va o'qitish tizimlari asosan bir xil, bir-biridan tubdan farq qilmaydi. O'qitish, *oddiydan murakkabga* tamoyili asosida o'tkaziladi, o'qitishning har bir bosqichi va xizmat mobaynida olingan bilim va malakalar nazorat qilinadi, olingan malakalarni yo'qotmaslik uchun mashg'ulotlar va mashqlar tashkillashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Танки и танковые войска./ Сергеев Л.В., Белоновский А.С., Скачко П.Г. и др. Учеб. пособие. - Москва: Издание Воениздат, 2001.- 190-202 с.
2. Нарсеян М.Г. Бронетанковая техника армии США, Англии и Франции: учеб. Пособие./ М. Г. Нарсеян.-М.: 2006- 9-13 с.
3. Шунков В.Н. Бронетехника: Справочное издание. / В. Н. Шунков. – М.: Минск, 2004.- 11-22 с.
4. Норштейн М. Бундесвер – армия профессионалов // «Partner». – 2012. – № 8 (179).
5. Дорошкевич О. Бронетанковая техника от первой мировой войны до наших дней: Научно-популярное издания./ О. Дорошкевич.-М.:2008. – 33-43 с.
6. Волковский Н.Л. Энциклопедия современного оружия и боевой техники:Научно-популярное издания. /Н. Л. Волковский.-М.: 2005.-4-18 с.
7. Арфеев В.Ю. Использование компьютерной техники для обучения войск (Зарубежный опыт)/. Военная мысль. – 2007 № 1 (1-2). С. 76-77.

